




Sizningcha, do'stlik faqat insonlar orasida bo'ladimi? Fikringizni izohlang. Do'stlikni ulug'laydigan qanday asarlarni o'qigansiz?



## Do'stlikda gap ko'p ekan

(O'zbek xalq ertagi)

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bir joyda bechora oq Qog'oz bor ekan. Qog'ozvoy bir joyda yotib-yotib judayam zerikibdi-da, qishlog'idan bosh olib chiqib ketibdi. U yo'l yuribdi, osmonda uchibdi, suvda suzibdi.



Bir kuni yo'lda ketayotsa, qarshisidan Kesakvoy chiqib qolibdi. Shunda Kesakvoyning qovog'idan qor, yuzidan do'l yog'ayotganini ko'rib, Qog'ozvoyning unga rahmi kelib gap boshlabdi:

- Assalomu alaykum, Kesakvoy.
- Vaalaykum assalom, – deb zo'rg'a alik olibdi Kesakvoy.
- Qani, Kesakvoy, yo'l bo'lsin, juda ham xafa ko'rinasan? – so'rabdi Qog'ozvoy.
- Bir joyda yolg'iz yotaverib juda zerikib ketdim. O'zimga do'st-birodar axtarib ketyapman, – debdi Kesakvoy.



– Unday bo'lsa, sen izlagan kishi biz bo'larkanmiz. Men ham bir joyda yolg'iz yotaverib zerikib, o'zimga sodiq oshna axtarib yuribman! – debdi Qog'ozvoy.

– Unday bo'lsa, kel, do'st bo'laylik, – debdi Kesakvoy. Qog'ozvoy jon deb rozi bo'libdi. Shunday qilib ikkovlon – Qog'ozvoy bilan Kesakvoy ajralmas do'st-birodar bo'lishibdi.

Kunlardan bir kuni qattiq shamol turibdi. Shunda Qog'ozvoy juda qo'rqib ketibdi-da, Kesakvoyga:

– Voy, do'stim Kesakvoy, chatoq bo'lyapti-ku?! Ana endi, bizning do'stligimiz buziladigan bo'ldi. Shamol bobo qahr bilan kelib, meni sendan ayirib olib ketadi, – debdi qattiq qayg'urib.

– Men bor ekanman, bunday bo'lishi mumkin emas. Men bunga yo'l qo'ymayman, – debdi Kesakvoy. Keyin Qog'ozvoyning ustiga chiqib uzala tushib yotib olibdi-da, do'stini Shamol bobo olib ketishidan saqlab qolibdi.

Ikkovlari xursand bo'lib turishgan ekan, osmonga Bulut bobo chiqib olibdi. Hamma yoqni qorong'ilik bosib, bir payt sharros yomg'ir quyib beribdi. Kesakvoy do'sti Qog'ozvoyga qarab:

– Ey do'stim Qog'ozvoy, ana endi mendek do'stingdan ajraladigan bo'lding. Mana shu yomg'ir meni birpasda eritib selga qo'shib olib ketadi-da, sendan ajratib, do'stligimizga chang soladi, – debdi.

Shunda Qog'ozvoy do'stiga qarab:

– Unday deb g'amga berilma, oshna. Mendek do'sting bor ekan, bunga yo'l qo'ymayman. Men seni o'rab olib, seni yomg'irning qahr-g'azabidan saqlab qolaman... – debdi.



- 1.** Qog'ozvoyning vatani qayerda edi?
- 2.** Qog'ozvoy bilan Kesakvoyning do'stlashishiga nima sabab bo'ldi?
- 3.** Ertak qahramonlarini qanday insonlarga o'xshatish mumkin?
- 4.** Siz ertakni davom ettirsangiz, voqealar qanday davom etar edi?
- 5.** Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?



- 1.** Ertak mazmunini qayta hikoya qilib bering.
- 2.** Ertak qahramonlariga ta'rif bering.  
"Qovog'idan qor, yuzidan do'l yog'ar" iborasini qanday holatlarda ishlatalish mumkin?
- 3.** Ertak mazmuniga mos maqollar ayting.
- 4.** Ertak asosida kichik sahna ko'rinishi tayyorlang.



**Ibn Sino hikmatlaridan qaysi biri rivoyat mazmuniga mos keladi?**

Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim.  
Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim.



Hikmatli so'zlarni o'qing  
va mazmunini izohlang.

Chin do'st uldirki, do'stidan hech  
qachon ranjimaydi, agar ranjisqa  
ham, uzrini qabul qiladi.

**Amir Temur**

Yangi do'st topsang, eski do'stlaringni  
unutma va ulardan yuz o'girma.  
Shunday qilginki, do'stlaring ko'p bo'lzin.  
Yaxshi do'stlar kishining boyligidir.

**Kaykovus**

Nodon do'stni do'st soniga kiritma.  
Chunki u nodonligi tufayli senga  
zarar yetkazadi.

Alisher Navoiy



Maqollarning ko'zgudagi aksini o'qing.  
Ularni ertak mazmuniga bog'lang.

Do'st so'zini tashlama,  
Tashlab poshindan dashlama.



Ertakni rollarga bo'lib o'qing.  
Shaxsiy kutubxonangizdan do'st haqida  
biror-bir asarni topib o'qing va uni  
ertak mazmuni bilan solishtiring.